

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI
TARBIYALANUVCHILARIDA EKOLOGIK BILIM VA MADANIYATNI
SHAKLLANTIRISH MASALALARI**

**ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ И
КУЛЬТУРЫ У ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ**

**QUESTIONS OF FORMATION OF ECOLOGICAL KNOWLEDGE AND
CULTURE AMONG PUPILS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL
ORGANIZATIONS**

Qilichova Marhabo Xudoyqulovna

JDPI "Maktabgacha ta'lim" fakulteti,

"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish masalalari tahlil etilgan. Ilk bolalik davridan ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Резюме

В данной статье анализируется формирование экологических знаний и культуры у детей в дошкольном образовании. Разработаны рекомендации по формированию экологических знаний и культуры в раннем детстве.

Abstract

This article analyzes the formation of environmental knowledge and culture in children in preschool education. Recommendations for the formation of environmental knowledge and culture in a early childhood have been developed.

Tayanch soʻzlar: *Maktabgacha taʼlim tashkiloti, ekologik bilim va madaniyat, ilk bolalik davri, tarbiyalanuvchi.*

Ключевые слова: *Учреждения дошкольная образования, экологических знаний и культура, ранние детство, дети.*

Keywords: *Preschool education, environmental knowledge and culture, early childhood, children.*

Ayrim ishlarning ulug‘vorligi ularning ko‘lamida emas, balki o‘z vaqtida amalga oshirilgani bilan belgilanadi. [1,27-b.]

Seneka

Bugun davlatimizning oldida ulug‘ bir maqsad bor. Bu maqsad O‘zbekistonning rivojlangan davlatlari qatoriga tezroq qo‘shilishini ta‘minlashdir. Albatta bu maqsadda eng avvalo inson hayotining turmush darajasining yuksalishi turadi. Davlatimiz esa bu borada barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilmoqda. Endigi bizning vazifamiz esa fuqaro sifatida davlat oldidagi o‘z burchlarimizni sidqidildan amalga oshirishdir. Mamlakatning tezroq rivojlanishi esa qaysidir jihatdan mana shu yurtda kamol topib, o‘z intellektual salohiyatiga ega bo‘lgan yosh avlodga bog‘liqdir.

Davlatimiz bunday avlodni tarbiyalashga katta e‘tibor qaratmoqda. Jumladan, maktabgacha ta‘lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalarni amalga oshirdi. Xususan, bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish darajasini joriy yilda 60 foizga etkazishimiz zarur. Ushbu maqsadlarga shu yilning o‘zida byudjetdan qariyb 1,8 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi.

Bu yildan boshlab, tariximizda ilk bora 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi joriy qilinadi. Bunga byudjetdan 130 milliard so‘m ajratilib, bu jarayonda xususiy maktabgacha ta‘lim muassasalari ham bevosita ishtirok etadi”[5.]

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari ham takomillashdi. 2019 yil 16 dekabrda “Maktabgacha ta‘lim-tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Qonunda maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat ta‘lim dasturi bolani to‘laqonli har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishini ta‘minlaydi [3,29-modda.]- deyilgan.

Shuncha yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, bolarni ilk yoshidanoq to‘g‘ri tarbiyalash masalalari bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Shunday tarbiyadan biri ekologik tarbiyadir. Bola yoshligidanoq tabiatni sevsa, uni asrab-avaylasa o‘z fuqarolik burchini ado etgan hisoblanadi. To‘g‘ri, bolalarga ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha) davrida “ekologik bilim” desangizning hech narsani tushunmaydi. Lekin bu degani bolalar bog‘chada faqat o‘ynaydi yoki uxlaydi degani emas. Aslida bilim-bilishdan boshlanadi. Biz ham aynan ekologik bilimni atrof muhitni tanishtirishdan boshlashimiz kerak. Undan keyin esa o‘sha atrof muhitni ozoda saqlashga o‘rgatsak, ularda ekologik madaniyatning ilk zarrachalari shakllana boshlaydi. Ota-ona yoki xullas, kimdir sifatida bo‘lsa ham bog‘chalarning atrof muhitini ertalab va bolalar uyga ketishi vaqtida kuzatganmisiz? Ertalab bog‘chalar atrofi toza, ozoda bo‘ladi. Bolalarning uyiga ketish vaqtida esa bu holatni kuzatmaymiz. Nega shunday? Hech o‘ylab ko‘rganmisiz? YOKi biz bu bog‘cha xodimlarini vazifasimi? Xodimlar bolalarning sog‘lig‘i uchun ham bog‘chani, uning atroftni toza, ozoda saqlashga majburmi? Albatta majbur. Lekin bu degani bolalar yoki ota-onalar va hakoziolar hohlagan narsasini bog‘cha atrofiga tashlab ketishi mumkin, degani emas-ku? Demak, bunda biz tarbiyachilar va ota-onalarning bolalarga o‘rnak bo‘la olmayotganligimiz aniq va ravshan bo‘lmoqda.

Ilk bolalik davri bir yoshdan uch yoshgacha hisoblanadi. Yangi qonunga binoan esa o‘sha bir yoshdan boshlab bolalar bog‘chaga qabul qilinadi. Biz bu davrda bolalarda qanday qilib ekologik bilim va madaniyatni shakllantiramiz?

Bilamizki bolalarda hattoki bir yoshga to‘lmasdanoq “ber” degan tushuncha shakllanadi. U o‘ziga kerakli bo‘lgan egulik yoki biron-bir o‘yinchoqni kimdandir olishi mumkinligini biladi. Unda “ber” degan so‘z aytilmasada, ishora bilan o‘z xatta-harakatini amalga oshiradi. Demak, bolada nimagadir egalik qilish bo‘yicha bilish ya’ni bilim bor. Endi biz unda “bu meniki”, “bu bizniki” tushunchalarini shakllantirishimiz kerak. Masalan, bog‘chadagi o‘yinchoq kimniki? Yoki bog‘cha atrofida o‘sayotgan gul kimniki? Agar bu ikkala predmet ham yorqin rangda bo‘lsa, albatta bolani o‘ziga jalb etadi. Va u bu predmetlarni “ber” deyishi mumkin, albatta.

Yoki bu predmetlarni “meniki” deyishi ham mumkin. Shunda tarbiyachi bolaga shirin soʻz bilan toʻgʻri tarbiya berishga harakat qilishi kerak. Ayrim holatlarda bogʻchalarda bolalarga erkin oʻynashga ham ruxsat berilmaydi. “Bolalardagi shumtakaliklarni yoʻq qilsangiz, hech qachon donishmandlarni yarata olmaysiz” [1, 28-bet.]-deydi gʻarb olimi Jan Jak Russo. Bu fikrda ham bir hikmat bor. Bola oʻzi qiziqqan oʻyinchoqni oʻynashi yoki uni buzishi mumkin. Tarbiyachi unda “bu bizniki” degan tushunchani toʻgʻri shakllantirsa maqsadga muvofiq boʻladi.

Shu nuqtai-nazardan ekologik bilim va madaniyatni shakllantirishda ham juda oddiy va sodda xatti-harakatlarni amalga oshirishimiz kerak. Masalan, ota-onalar bolarni bogʻchadan uyga olib ketayotganida, albatta ularga biron-bir shirinlik olib kelishadi. Bu odat tusiga aylangan. Bola uni “ber” deyishni biladi. U shirinlikni eb, masalan konfetni eb, qogʻozini erga tashlab ketadi. Aksariyat ota-onalar bunga hattoki eʼtibor ham berishmaydi. Shunda biz bolaga “ol” yoki “tashlama” degan tushunchalarni berishimiz kerak. Bu ham boladagi ilk ekologik bilim hisoblanadi. SHu tariqa bolaning yosh xususiyatini hisobga olib, ulardagi ekologik bilimlarni bosqichma-bosqich boyitib borish darkor. Bunda eng avvalo biz tarbiyachilar va ota-onalar ularga shaxsiy namuna boʻlishimiz kerak. Ikki yoshdan keyin bola deyarli koʻp narsalarni tushuna oladi. Unga gullarni yulmaslik, daraxtlarni sindirmaslik kabi tushunchalarni bemalol bersak boʻladi. Hattoki bu yoshda siz farzandingiz bilan birga daraxt yoki gul koʻchati eksangiz ham boʻladi.

Hayotimdagi shunga oʻxshash voqeani misol sifatida keltirib oʻtaman. Talabalik davrimizda paxta chopigʻiga chiqar edik. Paxta dalasiga fermerni kichik 3 yoshli farzandi ham tez-tez kelib turardi. Aniq esimda. Uning ismi Dilshod edi. Bir kuni paxta chopayotganimda mening oldimga keldi va men uni gapga solib, savol bera boshladim. U oʻzicha javob berar edi. Shunda men uning gaplariga eʼtibor beraman deb, kichik gʻoʻzani chopib yubordim. Shunda Dilshod meni toʻxtatib, chopilgan gʻoʻzani oldida tuproqni kichik qoʻllari bilan kovlab, “tuf”- dedida boyagi chopilgan gʻoʻzani ekib qoʻydi. Men lol qoldim. Va oʻshanda ha, bu fermerning oʻgʻlida, degan fikrga keldim. Mana bugun esa tarbiyachi, ona sifatida fikrleydigan

bo'lsam, har bir xatti-harakatimiz bola uchun maxsus bir dastur ekan. Biz bu dasturni to'g'ri yaratishimiz kerak.

To'g'ri, biz ekologik bilim va madaniyat desak, go'yoki bu katta yoshdagi o'quvchi yoshlarga tegishli tushuncha deb o'ylaymiz. Aslida esa ota-onani bilish ilk go'daklik davridan boshlansa, atrof muhit haqidagi tushunchalar ham bosqichma-bosqich shu davrdan shakllanib boradi. Dunyoni anglash bilishdan boshlanadi. Bilish esa asta sekinlik bilan bilimlarga aylanib boradi. Shu bilimlarni amaliy hayotda qo'llay olish darajasi esa uning madaniyati bilan belgilanadi.

Ekologik madaniyatni shakllantirish borasida rivojlangan davlatlar tajribasidan ham foydalansa bo'ladi. Masalan, Ispaniyada chiqindi intizomiga avalo bolalar rioya etadi, desak, ishonasizmi? Gap shundaki, u erda chiqindining har bir turi uchun alohida rangdagi qoplar bor. Uni to'ldirgan bolaga bir quti shirinlik beriladi. AQSHda esa chiqindi bobida intizom qoidalariga to'la bo'ysungan odamlar maxsus taqdirlanadi. Xatto ularda 15 noyabr kuni chiqindi bayrami kuni sifatida nishonlanadi. YAponlar esa bugungi kunda preslangan chiqindilardan butun boshli bir orolni barpo etmoqda. [4, 377-bet.] Shu kabi misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin.

Shu nuqtai-nazardan biz ham bog'chalarda rangli qopchalarni quysakda, bolalar bu qopchalarga belgilangan chiqindilarni tashlasa. Va ota-onalar bilan hamkorlikda shu ishni uyda ham tashkil etsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birga har qanday bola, nafaqat bola har bir inson qilgan ishi uchun rag'bat kutadi. Biz ham bolalarni har bir qilgan to'g'ri, foydali xatti-harakatini rag'batlantirsak, natijaga erishamiz. Bola agar qilayotgan xatti-harakati noto'g'ri ekanligini tushunsa, buni qilmaslikka albatta harakat qilgan bo'lar edi. Bolaning qilgan to'g'ri harakatlari uchun maqtab turilsa u oliyjanob bo'lib voyaga etadi. Bolani biror bir yaratuvchanlikda qo'llab-quvvatlab turilsa, u o'z qadrini anglab etishiga sharoit yaratiladi. Do'stona muhitda ulg'aygan bola esa mehr-muxabbatli bo'lishni o'rganadi.

Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”! [2, 4-bet.]

Shunday ekan, davlatimiz eng katta boylik va merosga ega bo‘lishi uchun ajdodlarga munosib avlodlarni tarbiyalab voyaga yetkazaylik. Zero, istiqbolda bugungi yosh avlod siz bilan bizning o‘rnimizni egallaydi.

Bu soha xodimlari yuksak mas’uliyat bilan ajdodlarga munosib vorislarni tarbiyalashda, bo‘lajak Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Farobiy, Alisher Navoiy, Sharof Rashidov, Islom Karimov kabilarni voyaga yetkazishda o‘z hissalarini qo‘shishlari darkor.

Adabiyotlar

1. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz... . T. “Ma’naviyat”, 2014, 27-bet.
2. <https://president.uz.O‘zbekiston> Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.
3. <https://lex.uz>. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim-tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. 2019 yil 16 dekabr.
4. Maktabgacha ta’lim: kecha, bugun va ertaga. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Jizzax 2018, 377-bet.
5. <https://president.uz.O‘zbekiston> Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va xalqiga murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.